



# KIBERMAKONDA PRESVITERIANLIK AMALIYOTLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METOODOLOGIK ASOSLARI EXPLORING PRESBYTERIAN PRACTICES IN CYBERSPACE THEORETICAL- METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF EDUCATION

---

*Tirkashov SHoxrux G‘olibjon o‘g‘li*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

*Samarqand filiali “Telekomunikatsiya texnologiyalari*

*va Kasb ta’lim”fakulteti TTKT 23-06guruh talabasi*

*e-mail: [sokhake166@gmail.com](mailto:sokhake166@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Maqolada kibermakonda presbyterianlik amaliyotlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari yoritib berilgan. Kibermakon va kibercherkov tushunchalarining mazmuni tahlil qilingan.

**Abstract:** The article describes the theoretical-methodological basis of the researching of presbyterian’s practices in cyberspace. Together with this, the content of the cyberspace and cyberchurch’s concepts are analyzed.

**Kalit so‘zlar:** kibermakon, xristianlik, presbyterianlik, amaliyot, kibercherkov, diniy jarayonlar.

**Key words:** cyberspace, christianity, presbyterianism, practice, cyberchurch, religious processes.

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosda rivojlanib, takomillashib bormoqda. G‘arb mamlakatlarida kibermakon bilan bog‘liq bo‘lgan diniy jarayonlar ilmiy tadqiqotlarning dolzarb mavzusiga aylandi. Xristian dinining internetga kirib kelishi va qisqa vaqtarda yoyilishi, butun dunyo bo‘ylab e’tiqod qiluvchilarining e’tiborini yanada ko‘proq jalb etishi natijasida olimlarning diqqat-e’tibori bu jarayonlarni tadqiq etishga qaratildi. Mazkur masalalar amerikalik olimlar G.Reyngold, M.Vindxem, S.O’Liri, Rozalind A.J.Heket, G.Yang, X.Kempbell; kanadalik professorlar D.Lochxed, K.Xelland; rus tadqiqotchilari E.Voronkova, N.Sviridova, D. Klimenko va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Xristianlik cherkovlarining kibermakonga kirib kelishi Bob Pulley, Tim Hutchings “Onlayn cherkov yaratish: ritual, jamoat, yangi ommaviy axborot vositasi” nomli kitobida, ibodat bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotlarning cherkovdan



kibermakonga ko‘chishi Teresa Berger, internet asrida xristianlar tafakkurining o‘ziga xos jihatlari Antonio Spadaro va Maria Way, Zukovski va Angela Ann, cherkovlarning kibermakonga transformatsiyasi Randall Keith tadqiqotlarida yoritib berilgan.

Kibermakon bilan bog‘liq diniy jarayonlar yurtimiz tadqiqotchilari tomonidan ham o‘rganila boshlandi, xususan, O‘zbekistonda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan saytlarda diniy mavzuning yoritilishi masalalari Z.G‘affarovning dinshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik dissertatsiyasida aks etgan. A.Tulepovning tadqiqotlarida internet orqali amalga oshirilayotgan tahdidlar, yoshlar ongiga salbiy ta’sir etadigan buzg‘unchi g‘oyalar va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi madaniyatsizlikning salbiy oqibatlari aniq dalillar va hayotiy misollar asosida tadqiq etilgan. Kibercherkov, bu cherkov sifatida mavjud bo‘lgan umumiy veb-sayt, yoki ijtimoiy tarmoqdagi interaktiv maydon hisoblanadi. Kibercherkov cherkov (onlayn cherkov yoki internet cherkov) - diniy guruh o‘zining diniy faoliyatini, xususan, ibodat xizmatlarini osonlashtirish uchun internetdan foydalanishning turli usullarini nazarda tutadi. Kibercherkov, asosan, shaxsiy veb-sayt, ommaviy veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoqdagi interaktiv maydon sifatida mavjud bo‘lgan makondir. Internet cherkovi, bu onlayn video, audio yoki yozma xabarlardan foydalanish orqali dindorlarning yig‘ilishi bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad internetdan foydalangan holda cherkov a’zolari yig‘ilishiga imkon berish hisoblanadi. Internet cherkovi o‘zining diniy e’tiqodlarini to‘liq yoki asosan onlayn usullar orqali o‘rgatadigan va amalda qo‘llaydigan muassasani tasvirlaydi. Internetda yuzlab cherkovlar mavjud bo‘lsa-da, “internet cherkovi” atamasi odatda a’zolarining aksariyati internet orqali uchrashadigan, bog‘lanadigan yoki yig‘iladigan cherkovlar uchun mo‘ljallangan, diniy xizmatlar esa internet texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Internet cherkovlari onlaynligi sababli pastorlar va dindorlarni jismonan bog‘laydigan an’naviy cherkovlardan farq qiladi. Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi ko‘plab cherkovlar o‘zlarining internet cherkoviga ega va ularning ko‘pchiligidida yuzlab a‘zolar bor. Internet cherkovlari bugungi kunda butun dunyoda mavjud, ammo ular hali ham “inson aloqasi” yo‘qligi uchun tanqid qilinadi. Amerikalik olim va pastor M.Vindxem kibermakondagi ilk diniy jamoalar va cherkovlarning kibermakonga kirib kelish zarurati va ahamiyatini ochib bergan. Olimning shaxsiy kuzatuvlariga ko‘ra, xristian jamoalari zimmasidagi vazifalar virtual xristian jamoalari tomonidan ham ado etiladi. Odamlar din to‘g‘risida gaplashish, ilmini oshirish va e’tiqodini yuksaltirish uchun bir yerda jam bo‘lar ekan, bu kibermakon bo‘lgan taqdirda ham, Injilda aytigan oliy maqsadlar ro‘yobga chiqadi. Cherkovlar



Internetga “qadam qo‘yar” ekan, xristianlar muloqotga qanchalik tashna ekanligiga amin bo‘ladilar. Odatda cherkovda odamlar faqat tinglaydi, ularga faqat gapiriladi. Kibermakon esa interaktivlik, fikr almashish imkoniyatini beradi, deb ta’kidlaydi olim.

Protestantlar xristianlikning Internetga dastlab kirib kelgan oqimlaridandir. Xususan, ulardan presbyterianlar birinchilardan bo‘lib 1985-yilda o‘zining kibermakondagi faoliyatini boshlagan. AQSHlik olim va pastor M.Vindxem “Kibercherkov: kibermakonda xristian jamoasi” nomli tadqiqotida boshqa cherkovlarga nisbatan AQSH presbyterian cherkovi kiberkommunikatsiya texnologiyalarining oldingi safida bo‘lganligini, yozuvchi va rohib Ch.Henderson ayni shu cherkov onlayn makonga kirib kelgan birinchi denominatsiya bo‘lganini ta’kidlagan. Ularning dastlabki tarmog‘i “Presbynet” bo‘lib, unda cherkov rohiblari va o‘z tarafdarlarini virtual olamda jamlagan. Olim va rohib Ch.Hendersonning ta’kidlashicha, AQSH presbyterian cherkovi onlayn makonga kirib kelgan birinchi denominatsiya bo‘lgan. Ushbu denominatsiya 1985-yil “Presbynet” tarmog‘i orqali cherkov rohiblari va o‘z tarafdarlarini virtual olamda jamlagan.

Italiyalik investor M.Menikochchi xristian diniga oid saytlarning quyidagi to‘rtta vazifasini ajratib ko‘rsatadi:

1. “Jamoatchilik bilan aloqalar” deb nomlanuvchi kompleks choratadbirlar yordamida dinga umumiyqod qilmaydiganlarga ham cherkovni tanishtirish, taqdim qilish (diniy ta’limot, sirli marosimlar va ularning mohiyatini ochib berish).

2. Yevangellashtirish va prozelitizm bo‘yicha ishlarni olib borish.

3. U yoki bu diniy jamoa a’zolari aloqalar o‘rnatish va ularning din xususidagi qarashlarini teranlashtirish (turli konfessiya saytlarida muayyan mavzu yuzasidan babs yuritiladi, forumlar tashkil qilinib, mailing list orqali foydalanuvchilarga yangilik va e’lonlar tarqatiladi).

4. Olim va boshqaruvchilar uchun materiallar taqdim etish. Muqaddas bitik matnlari deyarli barcha saytlarda mavjud. Qolaversa, ularning aksarida bepul yoki pulli asosdagi diniy adabiyotlar manbayi mavjud. Kibercherkov so‘zi dastlab veb-ishlab chiquvchi Tim Bednarning “Biz pastorlarimizdan ko‘ra ko‘proq narsani bilamiz” nomli maqolasida ishlatilgan, unda bloggerlik faoliyatining e’tiqodga ta’siri bat afsil yoritilgan. Dinshunos va yozuvchi Jorj Barna o‘zining “Inqilob” kitobida ushbu atamani “Internet orqali yetkaziladigan ruhiy tajribalar doirasi”ni tasvirlash uchun ishlatilgan. Jorj Barna kibercherkovni kelajakdagi cherkovning bo‘lajak “makro-ifodalari” (keng ko‘lamli shakllari) dan biri sifatida ko‘radi. Mashhur futurist Patrik Diksonning 1997-yilda chop etilgan “Kibercherkov”



(“Cyberchurch”) kitobida cherkovlar va alohida dindorlarning vebtexnologiyalardan foydalanishlarini o‘rganib chiqdi va keyingi o‘n yil ichida ularning tez o‘zgarishlarni, jumladan, video ko‘rinishdagi va jamoat forumlaridan keng foydalanishini, natijada global ta’sirga ega bo‘lgan yirik cherkovlar rivojlanishi mumkinligi g‘oyasini ilgari surdi.Umuman olganda, xristian dinining Internetda rivojlanishi natijasida diniy amaliyotlar kibermuhitda muayyan darajada o‘zgarishlarga yuz tutishni boshladi. Bu esa olimlarning mazkur jarayonlarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Wyndham M. (1996). Cyber church: christian community in cyberspace. A Dissertation for the Degree Doctor of Philosophy. The Southern Baptist Theological Seminary.
2. Rheingold H. (1993). The virtual community: Homesteading on the electronic frontier. Cambridge: The MIT Press. 2000 (second addition).
3. Zaleski J. (1997). The Soul of Cyberspace: How New Technology is Changing our Spiritual Lives. New York: Harper Collins Publishers.
4. Lochhead D. (1997). Shifting realities: Information technology and the church. Geneva, Switzerland: WCC Publications.
5. G‘affarov Z.Z. O‘zbekistonda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan saytlarda diniy mavzuning yoritilishi. Mag. diss. – T.: 2016. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya. – T.: Movarounnahr, 2015.
7. Dixon P.C. (1997). Cyberchurch, Christianity and the Internet. Kingsway Publications.
8. [https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet\\_church&oldid=106298947](https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet_church&oldid=106298947)
9. Nig'matullayev Ibrohim Ma'ruf o'g'li. (2021).IRLANDIYA PRESVITERIANLIK CHERKOVINING KIBERMAKONDA GAVDALANISHI. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 1(3), 48–53. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5716530>
10. Alimova, M., & Nigmatullayev, I. (2019). CLARIFICATION OF TOLERANCE IN ISLAMIC SOURCES. The Light of Islam, 2019(1), 13
11. Нифматуллаев, Иброҳим. "ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ." Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали 2.1 (2022): 166-171.
12. Ibrohim, Nig‘matullayev. "МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARI VA UNING AHAMIYATI." "Yosh Tadqiqotchi" jurnali 1.2 (2022): 43-46.



- 13.O'G'Li, Ibrohim Ma'Ruf. "PRESVITERIANLIKDA "ONLAYN IBODAT" NING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Scientific progress 2.7 (2021): 1332 1335.
- 14.Alidjanova, Laziza, and Ibrohim Nigmatullayev. "Abu Raykhan Beruni And His Scientific-Spiritual Heritage." International Scientific and Current Research Conferences. 2020.
- 15.Tim Bednar, "We Know More Than Our Pastors: Why Bloggers Are the Vanguard of the Participatory Church (<https://www.scribd.com/doc/47331/We-Know-More-Than-Our-Pastors>)" PDF (Accessed September 5, 2007)